

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2022 Vol. 4

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON:**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN:**

**LANGUAGE AND CULTURE**

**2022 Vol. 4**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosarlari:** Nodir Jo'raqo'ziyev

**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

### **Tahrir hay'ati**

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoglu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Uşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkiya)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nodir Jurakuziyev

**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### **Editorial board**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

### **Editorial Committee**

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkey)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

# MUNDARIJA

## Lingvistika

### **Inomjon Azimov**

“O‘zbek yangi alifbasini tuzishda asoslar” risolasi xususida.....6

### **Iroda Qahhorova**

Taqlid so‘zlarning o‘rganilish darajasi va tasniflanish tamoyillari.....26

### **Jo‘ra Xudoyberdiyev**

O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi.....40

### **Marhabo Umurzoqova**

Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili.....74

### **Alisher Ahrorov**

O‘zbek xalq maqollarida “nutq odobi” ma’nosining ifodalanish darajasi.....86

## Tarix. Manbashunoslik

### **Shamsiddin Kamoliddin**

Buxoro imperiyasi yoki O‘zbekiston bo‘ylab sayohat.....100

## San‘at

### **Gulabza Qarshiyeva**

Sa‘diy Sheroziy “Bo‘ston” asarining Kamoliddin Behzod ijodidagi talqini.....128

## CONTENT

### Linguistics

**Inomjon Azimov**

Regarding the manual "Rules for creating a new Uzbek alphabet" .....6

**Iroda Kaharova**

The degree of study and classification principles of imitative words .....26

**Jura Khudoyberdiyev**

Extraction of synharmonism from the Uzbek literary language.....40

**Marhabo Umurzakova**

The gender factor of determining the linguistic  
identity in the literary text.....74

**Alisher Ahrorov**

The degree of expression of the meaning of "speech etiquette"  
in Uzbek folk proverbs.....86

### History. Source studies

**Shamsiddin Kamoliddin**

Travel through the Empire of Bukhara or Uzbekistan.....100

### Art

**Gulabza Karshieva**

The interpretation of the ideas of "Boston" epic of Saadi  
Sherazi in the creativity of Kamoliddin Bekhzad.....128

## O'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi

Alisher Ahrorov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada xalqning milliy qadriyati, urf-odatlari, kundalik turmush tarzi, tarixi, madaniyati va ma'naviyatini o'zida namoyon etuvchi, sayqallanib, bugungi kunda og'zaki va yozma nutqda keng qo'llaniluvchi xalq maqollarida nutq odobi, nutq madaniyati, muloqot odobi, muomala madaniyati masalalarining qay darajada o'z ifodasini topganligi, shuningdek, "madaniy nutq" semasiga ega xalq maqollarining axloqiy qiymati va tagma'no ifodalash vazifasi muloqot tizimidagi o'rni, vazifaviy, lisoniy bilim va nutq vaziyatiga oid hamda madaniy jihatlari kabi ilmiy masalalarga munosib yechim topishni taqozo qilishi asoslangan. Chunki xalq maqollari hayotiy asosga ega, barcha jabhalarda isbotlangan fikrlarni o'zida namoyon etadi. Shunday maqollardan bir guruhi nutq madaniyati masalalarini o'zida namoyon etib keladi. Bunday maqollar muloqot jarayonida nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi vosita bo'lishi bilan birgalikda, kishilarni to'g'ri, rost, o'rinli, oz so'zlash, tinglash, sukut saqlashga undaydi. Bunday maqollar zamirida aynan shu nutqning madaniyligini ko'rsatuvchi omillar o'z ifodasini topadi.

**Kalit so'zlar:** *nutq madaniyati, muloqot odobi, muomala madaniyati, bilimlilik, kamtarlik, halollik, to'g'ri so'zlik, vatanparvarlik, elparvarlik, tilparvarlik, ochiq ko'ngillilik, samimiylik.*

### Kirish

Muloqot faqatgina suhbatlashish, o'zaro gaplashishdangina iborat hodisa emas. Nutq madaniyati, professor Y.Tojiyev ta'kidlaganidek: "Amaliy, murakkab munosabatlarni ifoda etuvchi, muloqot, muomala odobi kabi jihatlarni o'zida mujassam etuvchi vosita hamdir" [Tojiyev 2016, 20]. Muloqot odobi tushunchasi zamirida tinglash, sukut saqlash, o'zgalarning gapini bo'lmaslik,

<sup>1</sup> Ahrorov Alisher Akbarovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Guliston davlat universiteti.

**E-pochta:** axrorov891115@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0009-5785-449X

**Iqtibos uchun:** Ahrorov, A. A. 2022. "O'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 86–99.

gapga o'rinsiz aralashmaslik, mushohadakorlik kabi nutq odobiga xos xususiyat va holatlar nazarda tutiladi. Xalq maqollarida ham bu kabi madaniy nutq hodisalari o'z aksini topganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki xalq maqollari asrlar davomida sayqallangan, og'izdan og'izga o'tish mobaynida o'zining ixcham shakliga ega bo'lib borgan va chuqur mazmunga ega, o'zi yaratgan xalqning kundalik turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, qadriyatlarini ifodalab kelgan vositalardir. Maqollarning mavzu doirasi keng va bugungi kunda ham yetmishdan ortiq mavzuiy guruhga ajratilgan. Shular orasida yana shunday guruhlarni shakllantirish mumkinki, ular maqollarda qisqa gapirish, mushohadakorlik, oz so'zlash, rost so'zlash yolg'on gapirmaslik kabi nutq madaniyati, muloqot odobi bilan bog'liq bo'ladi. Mazkur maqolada xuddi shunday nutq madaniyatiga aloqador o'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi xususida fikr yuritiladi.

Ta'kidlash joizki, muomala madaniyati, muloqot odobi Sharqda, xususan, o'zbek xalqida komil insonga xos asosiy fazilatlar sifatida baholanadi. Ushbu serqirra masala, ayniqsa, o'zbek tilshunoslaridan E.Begmatov, R.Qo'ng'urov, Y.Tojiyev, S.Karimov, N.Mahmudov, S.Ibrohimov, U.Saidov va boshqa bir qancha tilshunoslarning izlanishlarida, risolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida chuqur tadqiq qilinib, qimmatli fikrlar bayon qilingan. Ularning sa'y-harakatlari bilan o'zbek xalq maqollarining mukammal to'plami yaratilib, bir necha marta nashr qilingan va shular asosida bu paremalarning semantik, sintaktik, janr xususiyatlari, ularning boshqa xalq og'zaki ijodi namunalari bilan qiyosi yuzasidan H.Berdiyev, R.Rasulov "Paremiologik lug'ati"ni tuzgan bo'lishsa [Berdiyev, Rasulov 1984], X.Sharafiddinovning izlanishlarida o'zbek xalq maqollarining funksional-stilistik xususiyatlari ochib berilgan [Sharafiddinov 1986], B.Jo'rayeva ham maqollarning lisoniy mavqeyi masalasi, ularning shakllanishi va pragmatik imkoniyatlarini o'rgangan [Jo'rayeva 2002, 2019], Sh.Qalandarovning ishlarida esa maqollarning zamonaviy ruhda talqini va tadqiqini uchratish mumkin [Qalandarov 2019]. D.Toshevaning tadqiqot ishlarida zoonem komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlilga tortilgan bo'lsa [Tosheva 2017], I.Mirzaaliyevning ishlarida qadimgi turkiy tildagi maqollarning semantik jihatlari ochib berilgan [Mirzaaliyev 2020], R.Madjidova ham maqollar bo'yicha izlanishlarini antroposentrik maqollarning aksiologik talqiniga bag'ishlaydi [Madjidova 2020], A.Axrorov ham maqollarning alohida guruh sifatida shakllantirish mumkin bo'lgan nutq



madaniyati masalasiga to'xtalgan [Akhrorov 2022].

### **Nutq madaniyati va mushohadakorlik**

Xalqimiz azaldan tilga, o'zaro suhbat jarayonida muloqot, muomala madaniyatiga alohida e'tiborda bo'lishgan. Chunki xalq madaniyatini, milliy qadriyatini ko'rsatuvchi vositalardan biri til ekan, muloqot madaniyati, tildan o'rinli foydalanish, muloqot jarayonida kishilar e'tibor berishi lozim bo'lgan, muloqot jarayonida amal qilishi kerak bo'lgan jihatlarga shu xalqning madaniyati, urf-odat, an'analarini tilda aks etishi sifatida qarash mumkin. Shuning uchun ham suhbat jarayonida to'g'ri, o'rinli so'z aytish, ortiqcha gapirmaslik, qisqa so'zlash, sukut saqlash, tinglash madaniyati, rost so'zlash, yolg'on gapirmaslik, mushohadakorlikka jiddiy e'tibor qaratganlar. Buning asosini "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq", "Hikmatlar", "Qobusnoma", Alisher Navoiy asarlarida ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, xalq bilan birga, uning tilida shakllangan maqollarda o'zining yaqqol ifodasini topadi.

Xalq maqollarida nutq, muomala odobi, nutq, muomala madaniyati kabi masalalar talqinining mavjudligi ularga ijtimoiy madaniyat, shaxs madaniyati omili sifatida yondashish lozimligini ham taqozo qilib turadi. Zero, xalq maqollari mazmuni ko'p yillik hayotiy tajriba xulosalari asosida shakllanib, sayqal topib kelgan ekan, ularda ilgari surilgan g'oya va fikrlar, xulosa va tavsiyalar, albatta, milliy-ijtimoiy ahamiyat kasb etishi tabiiy. Xususan, shu singari ijtimoiy-madaniy g'oyalarni o'z mazmun mundarijasida mujassamlashtirgan "*O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir*"; "*Bilmagan qopib gapiradi, bilgan topib gapiradi*"; "*So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin, tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin*" kabi maqollar talaygina. Bu maqollarda xalqimiz tomonidan mushohadakorlikka alohida e'tiborda bo'lishlik kerakligiga, suhbatda bunday jihatlarga e'tibor bermaslikning oqibatlari haqida ibratli va chuqur mazmunli gap boradi. Demak, bu kabi maqollarning hammasi hayot sinovlaridan o'tgan, mantiq va mazmunga boy, tajribada sinalgan, didaktik ahamiyatga ega, jamiyat tomonidan tan olingan tartib-qoidalar namunasidir. Mushohada qilmasdan, suhbatdosh yoki tinglovchining manfaatini e'tiborga olmasdan, muloqot maqsadi va suhbatdosh ruhiyatini anglamasdan, nutq vaziyati hamda sharoiti bilan hisoblashmasdan va boshqa shu kabi ko'plab pragmatik hodisalarni hisobga olmay turib, nutq yaratish va uni ifodalash nutq odobiga, madaniylik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Shuning uchun til va nutq, nutq madaniyati, nutq odobi masalasi

xalqimiz hayotida har doim muhim o'rin tutgan, bunga xalq og'zaki ijodi namunalari, qadimiy yozma yodgorliklar, muqaddas diniy kitob va hadislar, mumtoz adabiyotimiz namunalari orqali ham ishonch hosil qilishimiz mumkin. Mushohadakorlik tejamlilikka ham ta'sir qiladi. Tejamlilik umumiy ma'noda ortiqcha so'z so'zlamaslik, oz so'zlash va shu gap zamiriga chuqur mazmun singdira olishda ko'rinadi. Shuning uchun ham o'ylab, chuqur mushohada bilan gapirish xalqimizga xos jihatdir va muloqotda bunday sifatlarga alohida e'tibor qaratish lozimligini talab qiladi.

O'zbek xalq maqollari qayd etilgan manba va lug'atlarda kishilarning nutq odobiga ishora qiluvchi, nutq madaniyati bo'yicha ko'nikma va malakani shakllantirish mavzusiga aloqador maqollarning talaygina ekanligi kuzatiladi.

Mushohadakorlikning namunasi sifatida qarash mumkin bo'lgan xalq maqollariga xos yana bir muhim xususiyat shuki, mumkin qadar oz so'z bilan ko'p ma'no-mazmun ifodalash: *"Oz gapir, o'ylab-o'ylab soz gapir"*, *"Oz so'zlovchi boz so'zlar, boz so'zlagan soz so'zlar"*. Oz so'zlash tilni chuqur bilmaslikdan dalolat bermaydi, balki donolikning belgisi sifatida qaraladi: *"Dono o'ylab so'zlaydi, ham uzoqni ko'zlab so'zlaydi"*. Shuning uchun ham o'ylab gapirish, mushohadakor bo'lishga undashgan: *"Avval o'yla, keyin so'yla"*, *"Anglamay so'zlagan, og'rimay o'lar"*, *"Ming o'yla, bir so'yla"*, *"Kechasi yotib o'yla, ertasi turib so'yla"*, *"Sanamay sakkiz dema, o'ylamay o'ttiz"*, *"So'ylamasdan o'ylab ol"*.

Ko'rinadiki, nutq odobi talablarini ta'minlovchi muhim omillardan biri aynan xalq maqollaridir. Donishmand Plutarxning shunday gapi bor: "Nutqning kuchi oz so'z bilan ko'p ma'no anglata olishidadir". Xuddi shu kabi, donishmand I.Vinkelman: "Nutq san'atida ko'p gapirishdan ko'ra lo'nda gapirish qiyindir", deydi. Har ikki fikr ifodasida ham keng mushohada asosida nutqni shakllantirish, uni ifodalashga mas'uliyat bilan yondashish lozimligi uqtiriladi. Mashhur notiq Sitseron: "Notiqning eng ulug' fazilatlaridan biri zarur narsani aytishdagina emas, balki zarur bo'lmagan narsani aytmasligida hamdir", – deyar ekan, fikr ifodasida, nutq jarayonida "zarurini aytish", "zarur emasini aytmaslik"ka undaydi: *"Ko'p o'yla, oz so'yla"*, *"Ko'p o'yla, bir so'zla"*, *"Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham, soz so'zlar"*.

*"Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham, soz so'zlar"*. Maqol tarkibidagi *"ko'p bilgan"* bilimli, katta hayotiy tajribaga ega, ko'p narsaga aqli yetadigan, turmushning barcha achchiq-chuchugini tatigan, turli vaziyatlarga ro'baro' kelgan shaxs ma'nosini – ijobiy

xislatlarga ega bo'lgan inson tushunchasini ifodalab kelgan. "Oz so'zlar" masala mohiyatini mushohada qiladigan, hamma jihatlarni (o'rin, vaziyat, kayfiyat, vaqt va boshqalarni) e'tiborga olib, eng ma'qul ifodani tanlab, kam so'z ishlatib fikr bayon qilmoq demakdir, ya'ni ko'p gap aytmaydi, oz va soz gapiradi. Maqolning ikkinchi qismi ("Oz so'zlasa ham, soz so'zlar") nutqiy polifoniyani shakllantirgan holda, oz so'z, ixcham shaklda katta mazmun-ma'no, mantiqli fikr, salmoqli g'oya ifodasini kuzatamiz, ya'ni qisqa, kam so'z bilan salmoqli, eng muhim, asosiy fikr ifodalashni nazarda tutadi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, maqolda chuqur bilim va tajribaga ega, nutqida asosiy mavzu va mazmuni ixcham tarzda bayon qila oladigan shaxsning e'tirofi o'z ifodasini topgan deyish mumkin.

Tarixdan ma'lumki, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz qisqa, lo'nda gapirish, ezmalik qilmaslik xususida juda ko'p va xo'b fikrlar bildirishgan, kishilarga, farzandlarga pand-nasihatlarini bayon qilishgan. Ularning hikmat to'la fikrlari mo'tabar manbalarda saqlanib, hozirgi kungacha yetib kelgan. Ma'lumki, qisqa – lo'nda gapirish, ezmalik, ko'p gapirish, o'z fikrini ko'p gap bilan bayon qilish, gapni cho'zish, chaynalib gapirish, bitta fikrni takror-takror bayon qilish, nutqda ayrim so'zlarni ko'p ishlatish (endi, shunday qilib, xo'sh, nima edi, xullas... kabilar), uzoq vaqt gapirish kabi nutqiy hodisa va holatlar ham inson fe'l-atvoridan, madaniyatlilik darajasidan, dunyoqarashi va ma'naviyatidan xabar berib turadi. Qisqa-lo'nda gapiruvchilar ham, cho'zib, ezmalanib gapiruvchilar ham hamma davrlarda bo'lgan va birinchi toifadagilar maqtovga, hurmatga sazovor bo'lgan, olqishlangan; ikkinchi toifadagilarga esa tanbeh berilgan, nutq bilan bog'liq nuqsonlari qoralangan. Shuning uchun bu masalaga har doim jiddiy e'tibor qaratib kelingan: *"Odam so'z tufayli ulug'likka erishadi, podsho bo'ladi, ko'p va ortiqcha so'z esa yuzni yerga qaratadi"*, *"Ko'p so'zlagandan ortiqcha naf ko'rmaganman, so'zning ko'pidan foyda ham olmaganman"*, *"Tilingga juda ehtiyot bo'lgin, boshing omon saqlanadi; So'zingni qisqa qilgin, yoshing uzayadi"*, *"Haddan ortiq so'zlaganlarni ezma deydilar, shuningdek, hech so'zlamaganlarni gung deb ataydi"* ("Qutadg'u bilig"dan).

Keltirilgan so'nggi fikrga e'tibor bersak:

a) gapirish, albatta, kerakligi, inson gapirmasligi mumkin emasligi haqida so'z bormoqda;

b) ammo gapirishning haddi, chegarasi, me'yori borligi uqtirilmogda;

d) agar chegaradan chiqib ketilsa, ezmalikka aylanib ketishi haqida ogohlantirilmoqda;

e) ezmalik esa salbiy xususiyat ekanligi haqida ma'lum qilinmoqda;

f) umuman gapirmaslik ham illat ekanligi uqtirilyapti.

"Qutadg'u bilig" muallifi bu masalaga katta e'tibor berib yana shunday deydi: "Ko'p gapirilgan gap zerikarli bo'ladi, zakovatli odamlar gapni ko'p cho'zmaydilar"; "Beklar qachon sendan so'z so'raydigan bo'lsalar, so'zni ko'p cho'zmagin. Agar so'zingni eshitmoqchi bo'lsalar, bilganlaringni ohista bayon qil, so'zingni kessalar, darhol to'xtat, so'zni cho'zmagin" [Qutadg'u bilig, 287]. Nutq kommunikativ sifatlari bilan bog'liq bu kabi ibratomuz, hikmatga boy fikrlar, pand-nasihatlarining "Qobusnoma", "Devonu lug'at-t-turk", "Mahbub ul-qulub", "Hibatul haqoyiq", "Axloqi Muhsiniy" kabi yana o'nlab manbalarda ko'plab bayon qilinganligini kuzatamiz. Bu manbalarda aytilgan fikrlarning birortasi ming yillar davomida o'z tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan. Bunday ibratlarli mazmuni maqollar tarkibida ham uchratamiz: *"Arqonning uzuni, gapning qisqasi yaxshi"*, *"Gapni kam so'zla, ishni ko'p ko'zla"*, *"Gapning ko'pi – chaqaning siyqasi"*, *"Gapning ozi – oltinning sozi"* kabi.

Davrimizning ulug' yozuvchisi Abdulla Qahhorning ixcham, qisqa jumlalarda chuqur mazmuni ifodalay olish mahorati, asarlari va nutqida fikrni nihoyatda qisqa ifodalashga intilishi, hamma yosh ijodkorlardan buni jiddiy talab qilishi haqida mashhur tanqidchi – adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov o'zining "Birinchi mo'jiza" kitobida quyidagi fikrni bayon qiladi: "Yozuvchi ikki og'iz gap bilan buning sabablarini ochadi, *"Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi"* iborasini keltirish bilan olam-olam fikrni, sabablarini ochib tashlaydi" [Шарафиддинов 1979, 279]. Abdulla Qahhor umrining so'nggi kunlarigacha pishiq, puxta, ixcham jumlalarda katta mazmun ifodalash talabida turganligini munaqqidlar, shuningdek, yozuvchining umr yo'ldoshi Kibriyo Qahhorova ham alohida ta'kidlagani ko'pchilikka ma'lum. So'zlovchidagi bu xususiyat, ijodkordagi bu mahorat doim qadrlangan, nutq egasiga obro'-e'tibor keltirgan.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida nutq qisqaligini qo'llab-quvvatlovchisi sifatida quyidagilarni bayon qiladi: *"Zakovatlilarni ko'rganim bor, ular oz so'zlaganlar, lekin ko'p so'zladim deb yillab, afsus qilganlar"* (297-bet). Shunga hamohang, uyg'un yondashuv maqollarda ham yaqqol kuzatiladi. Demak, insonning lo'nda, qisqa gapirishiga, ezmalik qilmasligiga, nutq,

matn yaratishda soʻzlarni saralash, oʻz oʻrnida qoʻllash mahoratiga boʻlgan talab hamisha dolzarblik kasb etgan. Insonlarda qisqa, loʻnda, ammo mazmundor nutq ifoda qilish koʻnikmalarni shakllantirish oʻzbek xalq maqollari mazmunida ham oʻz ifodasini topgan: *“Izzat tilasang koʻp dema, sihat tilasang koʻp yema”, “Koʻp bilgan oz soʻzlar, oz soʻzlasa ham, soz soʻzlar”, “Koʻp gap ortiqcha yuk”* (varianti: *“Koʻp gap eshakka yuk”*), *“Koʻp yomgʻir yerni buzar, koʻp soʻz erni buzar”, “Koʻp gapirsang, dushmanga qoʻl keladi”, “Koʻp demak bilan boʻlmagin nodon, koʻp yemak bilan boʻlmagin hayvon”* (variantlari: *“Koʻp demak soʻzga magʻrurlik, koʻp yemak nafsga maʼmurlik”*), *“Oshning yogʻlisiyu, gapning loʻndasi yaxshi”, “Til yugurigi boshga”, “Uzun til – boshga toʻqmoq, boʻyinga sirtmoq”, “Gap desang – qop-qop, ish desang – olatogʻdan top”...*

Qayd qilingan maqollar mazmunidan maʼlumki, nutq kommunikativ sifatlaridan biri boʻlgan “qisqalik” sifati nutq jarayonida ixcham shaklda keng mazmunni ifodalash, ortiqcha birliklarni qoʻllamaslik, nutq samarasiga xizmat qiluvchi omillarga eʼtibor qaratish kabilar orqali taʼminlanadi. Ezmalik qilmaslik, qisqa, loʻnda gapirish, ixcham jumlar tuzish, oz soʻz bilan, ixcham jumla bilan chuqur, mantiqli maʼno-mazmun ifodalash, oʻrinli gap aytish, suhbatdoshni – tinglovchilarni oldi-qochdi gaplar bilan chalgʻitmaslik kabilarning talqin va tavsifini oʻzida aks ettirgan xalq maqollari miqdorining koʻpligi masalaning muhim va dolzarbligidan dalolat beradi.

### **Tinglash – madaniyat, sukut – odob**

Nutqiy madaniyati, nutq odobi bilan aloqador yana bir muhim masala – sukut saqlash, tinglay olish masalasidir. Ayniqsa, hozirgi kunda tinglash madaniyati, sukut saqlash odobi alohida eʼtibor va munosabatni taqozo qilmoqda. Nutq odobi doirasida qayd qilinadigan tinglash, sukut saqlash ham nutq madaniyati darajasi bilan bevosita bogʻliq. Shuning uchun ham xalqimiz tomonidan *“Soʻzlamog kumush boʻlsa, jim turmog – oltin”* maqoli keltiriladi. Bundan shu narsa ayon boʻladiki, toʻgʻri, oʻrinli, oʻylab va vaziyatni hisobga olgan holda aytilgan nutq xalqimiz tomonidan kumushga tenglashtirilgan (qimmatbaholik, kamyoblik maʼnosida). Sukut saqlashni esa undanda yuqoriroqqa koʻtaradi va jim turmog, sukut saqlamoq oltinga teng ekanligi keltiriladi. Demak, xalqimiz tomonidan sukut saqlash odobiga barcha davrlarda alohida eʼtibor qaratilib kelingan. Shuning uchun ham tinglash, sukut saqlash masalasiga doir maqollar xalqimiz ijodida talaygina: *“Til beruvchi*

*O'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi*  
*bo'lma, til oluvchi bo'l", "So'zlovchi nodon bo'lsa, eshituvchi dono kerak", "So'ramaslaridan oldin so'z so'zlama".*

Adib, tilshunos Siddiq Mo'min o'zining "So'zlashish san'ati" asarida nutq madaniyati, muomala odobi kabi masalalarga to'xtalib o'tib, uning so'zboshisini ham "Yaxshining so'zi moy..." maqoli bilan boshlab, birinchi maqolani "Avval tinglashni o'rgan" deb nomlaydi va shoir Azim Suyundan ikki misra she'r keltirib o'tadi:

*Azizlarim, tinglasangiz jim,  
Bir suhbatning keldi-da gali.*

Asardagi bir maqolaga "Indamasdan indashni bilasizmi?" sarlavhasini qo'yib, so'ngra "Sukutda hikmat ko'p, Bulutda – himmat" maqolini keltiradi [Mo'min 1997, 100].

Nutq jarayonida suhbatdoshning nutqini bo'lish va uning fikrini hurmat qilmaslik, fikrni oxirigacha eshitmaslik, suhbat jarayoniga noo'rin aralashish, odatda, o'ta salbiy holat hisoblanadi. Bunday nutq odobi doirasidan chiqish kabi noxush, salbiy holat va odat kundalik suhbat, muloqot jarayonlarida, ommaviy-axborot vositalari orqali uzatilayotgan eshittirish va ko'rsatuvlarda ham tez-tez kuzatilmoqda. Madaniyatimiz tarixida ham bu kabi salbiy hodisa-holatlar kuzatilgan va, albatta, qoralangan. Shuning uchun bo'lsa kerakki, Sa'diy Sheroziy quyidagi fikrni aytadi:

*"Ey oqil, so'zning ham bosh-oyog'i bor,  
O'zga so'zga so'zing qistirma, zinhor,  
Aqli hush egasi, tadbirli inson,  
So'z boshlar suhbatdoshi jim bo'lgan zamon".*

Yoki Abulqosim Firdavsiy tomonidan nutq sharoit va vaziyatni to'g'ri baholamaslik, o'z nutqiga e'tiborsizlik, noo'rin fikr ifodalash kishiga ziyon keltirish manbayi sifatida tasvirlanadi:

*"Kimda behuda so'z gar bo'lsa bisyor,  
Ul nutq majlisinda doim bo'lur xor"*

Alisher Navoiy ham o'z ijodida bu masalaga alohida diqqat qaratib, uning chuqur talqini orqali ta'sirchan targ'ibi va tavsifini yaratgan: "Tilni tiya olgan odam – donishmand oqil"; "So'zga erk bergan odam – beandisha va pastkash"; "So'zi hisobsiz, o'zi hisobsiz" kabilar.

Ko'rinadiki, sukut saqlash, tinglay bilish, boshqalar fikrlarini sabr, odob bilan eshitish fazilat sifatida tavsiflangan, mazkur fazilat egasi madaniyatli shaxs darajasida qadimdan qadrlanib kelingan.

Boshqacha aytganda, tinglay olish, birovlar gapini sabot bilan eshitish, ular gaplari orasiga gap qo'shmaslik kabi xislatlar shaxs madaniyatini belgilash omillaridan sanaladi va bu masalaga hamma zamonlarda ham jiddiy e'tibor qaratilganligi o'zbek xalq maqollari mazmuni orqali ham kuzatiladi.

Demak, tinglay bilish, sukut saqlash, o'rinli gapirish odobiga egalik insonning eng yaxshi fazilatlaridan sanalishi lozim. Ana shuni ko'zda tutgan holda D.Hamidova o'zining "Etnos va til" maqolasida bu haqda quyidagilarni qo'shimcha qiladi: "Agar kuyinib gapirsangiz-u, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'lsa, undan, albatta, ranjiysiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb bilish kerak...". "Shuning uchun yaxshi gapiruvchi, yaxshi tinglovchi bo'lish kerak... Agar yaxshi suhbatdosh, ya'ni odamlar bilan yaxshi muomala – munosabatda bo'lishni istaysiz, yaxshi tinglovchi bo'ling (avvalo, diqqat bilan tinglovchi bo'lingiz)" [Tilshunoslikning dolzarb muammolari 2004, 165]. Sukut saqlash, tinglash odobining nutq madaniyati, muloqot madaniyatiga aloqador masalalarning eng muhimlaridan biri ekanligiga ana shu soha bilan jiddiy shug'ullangan Ulug'bek Saidov o'zining "Boshqaruv va notiqlik san'ati" asarida alohida to'xtalib o'tadi. Muallif o'z kitobida fransuz tilshunosi P.Buastning bir fikrini keltirib o'tadi: "Gapirayotgan odam ekadi, eshitayotgan odam hosil yig'adi" (21-bet). Olim kitobning "Bahs – aqllar kurashi" qismida sukut saqlash, tinglash haqida: "Bahsga kirishgan odamlarda, avvalo, diqqat bilan opponentini tinglay olish ko'nikmasi yetishmaydi", – deydi va g'arb olimi Din Raskning bu mavzuga doir fikrini keltirib o'tadi: "Bizning ixtiyorimizda o'zgalarni ishontirishning faqat bitta usuli bor – ularni tinglash" (107-bet). U.Saidov dunyo donishmandlarining sukut saqlash, tinglash, haqidagi fikrlaridan namunalar keltiradi: "Sukut hech qachon xiyonat qilmaydigan sodiq do'st" (Konfutsiy); "Ko'p bilgan sukut saqlaydi, ko'p gapirgan esa hech narsani bilmaydi" (Lao-tszi); "Tildan ko'ra quloqlardan foydalan" (Demonant); "Sukut saqlashni bilmagan odam gapirishga ham qodir emas" (Seneka).

Nimani aytish yoki nimani aytmaslik nafaqat notiq uchun, balki oddiy nutq egasi uchun ham o'ta muhim masaladir. "Hozirgi vaqtda ham, o'tmishda ham notiqlik – madaniyatning eng kuchli tayanchlaridan biridir", – deganda A.P.Chexov to'la haqlidir. Zero, notiq o'z nutqini oldindan puxta o'y, reja asosida shakllantirar ekan, o'z-o'zidan nutq odobi va aytganlari amali bilan bir bo'lgan adib A.Qodiriyning: "So'z so'zlashda va undan jumla tuzishda uzoq

andisha kerak", – degan jumlasida ham yuqorida ta'kidlanganlarga hamfikrlilik mavjud. Ya'ni har bir gapni juda pishiq o'ylab, so'ng aytish kerak. Bunday masalalarning barchasi ko'rinib turibdiki, xalq maqollarida o'z aksini topgan.

Mashhur ijodkorlar tomonidan nutq madaniyati va odobi mazmuniga ega xalq maqollariga tez-tez murojaat qilinishiga ham guvoh bo'lamiz. Jumladan, Yusuf Xos Hojib ijodiga mansub quyidagi misralar tarkibida ham nutq odobiga doir fikrlar ifodasini kuzatamiz:

*"Bor so'zni so'z sanab tebranmasin til,  
Ko'rib, o'ylab so'zla, keragini bil"* ("Qutadg'u bilig").

Navoiyning *"So'zi hisobsiz – o'zi hisobsiz"; "So'ziga parishonlik– o'ziga pushaymonlik"; "Tan kasalligining asosi – ko'p yemaklikdir, qalb kasalligining sababi – ko'p demaklikdir"* kabi xalq maqollari mazmuni bilan sug'orilgan hikmatlarida ham til va nutq odobiga alohida e'tibor qaratilganligi bejiz emas.

"Nutq madaniyati mavzusi juda keng tushuncha. U, eng avvalo, til madaniyatiga amal qilish, nutq me'yorlari asosida to'g'ri, o'rinli, tushunarli bir tarzda gapirish va yozish, shu bilan birga, nutq etikasiga rioya etish, xushsuxan bo'lish, silliq, yoqimli gapirishdan iboratdir", – deya ta'kidlagan professor S.Ibrohimov nutq madaniyati mavzusining keng tushuncha ekanligining ma'lum jihatlarinigina qayd etgan, xolos. So'z qudrati haqidagi bilimlar, xalq maqollari, iboralarida qayta-qayta ta'kidlangan o'ta mantiqli fikrlarni uqish, ularga amal qilish talab etiladi. Maqollardagi shaklan qisqalik va ixchamlik, mazmunan teranlik, o'tkirlik shu tarzda eng muhim xulq-odobni, insoniylikni tarkib toptirish, targ'ib qilish, tarannum etish, odamiylikka, halollikka da'vat kabi g'oyalar uyg'unlashuvi tahsinga sazovor.

### **Yaxshi so'z va yomon so'z**

Jumla tuzishga bo'lgan talab natijasida murojaatlarimiz "yaxshi" yoki "yomon" bo'lishi mumkin. Chunki, ko'p hollarda, o'zimiz uchun ma'qul deya topilgan narsalarga "yaxshi" sifatini, ma'qul bo'lmaganlarga nisbatan "yomon" sifatini qo'llashga odatlanganmiz. Muloqot madaniyatida ham bunday sifatlarni qo'llagan holda, "yomon gap" yoki "yomon so'z", "yaxshi gap" yoki "yaxshi so'z" iboralarini qo'llaymiz. Umuman olganda, tilshunoslikda emas, barcha jabhalarda bunday qarash dialektik qonuniyat sifatida e'tirof etiladi. Suhbat samarasini ta'minlash maqsadida yaxshi so'zlashga harakat qilamiz. Bunda qo'llanilgan "yaxshi" leksemasidan anglashilgan mazmun umumiy bo'lib, qanday so'zga birikishiga



qarab uning sifatini ko'rsatadi. Maqollarga ham xalqimiz tomonidan bunday sifatlar singdirilgan. Masalan, *"Yaxshining so'zi – qaymoq, yomonning – so'zi to'qmoq"* maqolida ham yaxshi so'zlashga yodlash, yaxshi so'zning foydasi haqida fikr boradi yoki *"Yaxshi so'z – ko'ngil podshosi"* maqolida bu yaqqol ko'rinadi. Chunki muloqot jarayonida nutqiy vaziyatni hisobga olib aytilgan har qanday o'rinli jumla nisbatan yaxshi so'z deya keltiriladi. Bunda ifodalangan yaxshi so'z tushunchasi nisbiy. Negaki, suhbat holati va suhbatdosh xarakteri, muloqot vaziyatiga qarab yaxshi so'z aniqlanishi mumkin. Aks holda emotsionalligi yuqori va kayfiyatni ko'taradigan har qanday jumla bo'lsin o'rinli qo'llanmas ekan unga yaxshi sifatini berib bo'lmaydi. Xalqimiz tomonidan bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan: *"Yaxshining so'zi – qaymoq, yomonning – so'zi to'qmoq"*. Bunday so'zlar insonlarga, balki barcha jonzotlarga ham yoqishi mumkinligini ta'kidlaydi: *"Yaxshi muomalaga tuya ham cho'kadi"...*

Yomon gap esa muloqotga salbiy ta'sir qilishi haqida uqtiradi: *"Yomon gap yeldirimday tez yoyiladi"*. Haqiqatda ham har bir maqol hayotiy tajriba asosida yaratilgan. Yaratilishi ancha davr taqozo qilishi mumkinligiga qaramay, maqollar shu davr uchun dolzarb va hayotiy haqiqatni bayon qiladi. Bugungi kunda ham yomon gap tez tarqalishiga hamma guvoh. Bunday gaplar insonga qattiq ta'sir qilishi mumkin: *"Yomon gap tarsakidan yomon"*. Shuning uchun ham yomon gap haqida maqollarning salbiy bo'yoq ottenkasi bo'rttiriladi: *"Yomon gap yerning tagida uch kun yotar"*, *"Yomon gap boshga balo"*, *"Yomon gapdan tilingni tiy, tekin oshdan nafsingni"*, *"Yomon so'zning qanoti bor"*, *"Yomon til yo jonga urgay, yo imonga"*, *"Gapi to'mtoqning o'zi to'mtoq"* kabi.

